



ESHITISHDA NUQSONI BO'LGAN BOLALAR MAKTABIDA O'QISHGA O'RGATISH METODIKASI

Fayzullayeva Madina

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Surdopedagogika va maxsus pedagogikaning klinik asoslari fakulteti Surdopedagogika yo'nalishi 304-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning so'zlashuv nutqi, so'zlashuv nutqining shakllari, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning so'zlashuv nutqlarining qay darajada ahamiyatga ega ekanligi haqida ma'lumotlar berilgan.

Kirish:

Hozirgi kunda davlatimizda maxsus ta'lim tizimi doirasida kar va zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqiy eshitishlarini rivojlantirish, ularni savodga o'rgatish, so'zlashuv nutqini shakllantirish, maktabgacha – senzitiv davrda nutqini keng qamrovli rivojlantirish hamda bo'lajak surdopedagoglarda kasbiy ijodkorlikni rivojlantirishda eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ta'lim olish tamoyillari asosida amalga oshirish kabi keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Kalit so'zlar: Eshitishda nuqsoni bo'lgan bola, korreksiya, rivojlantirish, ta'lim, nutq, so'zlashuv nutqi, daktil nutq, yozma nutq, o'g'zaki nutq.

Nutq — murakkab fiziologik faoliyatdir. U ruhiy jarayonlarning tarkib topishiga va bolaning umuman barkamol bo'lib o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Nutq eshituv organlari vositasi bilan idrok etishga asoslangan bo'lib, atrofdagilarga taqlid etish yoli bilan rivojlanib boradi. Og'zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori, nutqni harakatga keltiruvchi analizator ishtirok etadi. Nutqni harakatga keltiruvchi analizator eshituv analizatori bilan mahkam bog'langan holda ishlaydi. Kar bolalar nutqining rivojlanish bosqichlari sog'lom bolalarga nisbatan biroz boshqacha rivojlanib boradi. Ilk maktabga kelgan bolalar o'z ehtiyojlarini o'zi va oila a'zolari uchun tushunarli bo'lgan imo-ishora nutqidan foydalanadilar. ENB og'zaki va yozma nutq bilan bir



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

qatorda faqat ular uchun xos bo'lgan nutq shakli "Daktil" va "Imo-ishora" nutqidan foydalanadilar. So'zlashuv nutqiga ehtiyojni tarbiyalash oiladan boshlanishi, ya'ni maktabda egallangan nutqiy ko'nikma va malakalar oilada tabiiy vaziyatlarda mustahkamlanishi va o'quvchilar amalda (erkin, qo'rqmasdan, uyalmasdan) qilishlariga erishish uchun keng sharoit yaratilmoqda. Ushbu sharoit oila a'zolari ishtirokida yaratiladi. Ularning kar bola bilan keng muloqoti va iliq munosabati bolaning keyingi bosqich ta'lim-tarbiyasiga va umuman taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan hisoblanadi. Kar va zaif eshituvchi bolalarning nutqiy axborotni qabul qilish va uzatish imkoniyati eshitish (har qanday daraja karlikda u ma'lum miqdorda bo'ladi) qoldig'idan optimal ravishda foydalanishga bog'liq bo'lganligi tufayli maxsus muassasalarda ta'limni ovoz kuchaytiruvchi apparatlar asosida olib borish talab etiladi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar so'zlashuvda o'zlari uchun qulay bo'lgan muloqot turini tanlaydilar. Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning so'zlashuv nutqi esa 4 xil shaklda namoyon bo'ladi. Ular quyidagilar:

1. Og'zaki nutq;
2. Yozma nutq;
3. Imo-ishora;
4. Daktil.

X.P.Bonnet (1579-1633) o'zining 1620-yilda yozilgan «Tovushlar tabiati va karsoqovni gapirishga o'rgatish san'ati» asarida karlarni o'qitish va tarbiyalashning o'sha davrdagi maqsad va vazifalarini ko'rib chiqar ekan, ularni so'zlashuv nutqiga daktil va og'zaki nutq orqali o'rgatish lozimligi haqida so'z yuritadi. U kar bolalarni maxsus ravishda tayyorgarlikka ega bo'lgan o'qituvchi o'qitishi, ta'lim jarayonida nutqni va aqliy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan ishlar savol-javob shaklidan foydalangan holda olib borilishi alohida e'tiborli omil sifatida qaraydi. Iogann Fatter Germaniyalik bu olim o'qitishda og'zaki nutqni o'zlashtirishga o'rgatishni asosiy maqsad qilib oldi. Bolalar nutqini o'stirish, ularni fikrlashga, uni boshqalarga tushunarli bayon etishga o'rgatish, bolalarning obrazli, mantiqiy, ijodiy, abstrakt fikrlashini shakllantirish va nutq o'stirish metodlarining o'rni, mohiyati muhimdir. Shuning uchun har bir pedagog ta'lim metodlarini puxta bilishi, bolalar nutqini rivojlantirishning eng qulay metodlarini tanlashi va qo'llay olishi, uni takomillashtirishi lozim. Eshitish



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th April, 2025

muammosi holatidagi bola nutqining rivojlanish mexanizmi ko'p jihatdan kompleks yondoshuvning sifat darajasiga bog'liq bo'ladi. Korreksion faoliyatning ko'p tomonlama yo'nalganligi jarayonning me'yorda hamda natijaviy bo'lishini ta'minlaydi.

Kar bolalarda nutqni shakllantirish masalalari I.M.Solovev, F.F.Rau, J.I.Shif, S.A.Zikov, T.V.Rozanova, N.G.Morozova, R.M.Boskis va boshqalarning ishlaridan anchagina to'liq va har tomonlama yoritilgan. Nutq birinchi signal sistemasiga kiruvchi eshitish analizatori bilan bevosita bog'liq bo'lib, aynan eshitish analizatoriga tayangan holda yoshga mos ravishda rivojlanib boradi. Kar bolalarda eshitishning buzulgabligi sababli ularning nutqida jiddiy nuqsonlar mavjud. Eshitish analizatorining buzilish darajasi qanchalik yengil bo'lsa eshitishda nuqsoni bo'lgan bola nutqini shuncha yaxshi rivojlantirish mumkin.

Xulosa: Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning hayotida so'zlashuv nutqini ahamiyati va roli juda katta o'rin egallaydi. So'zlashuv nutqi eshitishda nuqsoni bo'lgan (ENB) bolalarni ijtimoiy hayotga moslashuviga, kelajakda o'zlarining o'rnini topa olishida va shaxs sifatida rivojlanishida yordam beradi. Surdopedagogning asosiy vazifasi kar bolalarni daktil yoki imo-ishora nutqiga o'rgatish emas, ularni og'zaki nutqini shakllantirishdan iboratdir.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitustiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2016 yil 7 dekabr. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2016.
2. Abdunazarov, A. (2020). Imkoniyati cheklangan bolalarning ijtimoiy moslashuvini o'rganishning innovatsion usullari.
3. Maxsus pedagogika / O'quv qo'llanma. M.U.Xamidova Toshkent-2018. 32-37b
4. P.Po'latova, Z.Mamarajabova L.Nurmuxamedova. Maxsus pedagogika. Darslik "Fan va texnologiyalar" nashriyoti. T.: 2014
5. Pedagogik diagnostika va korreksiya / Darslik. X.A.Raxmatova Toshkent – 2021 yil
6. Isoqjonova D. M. ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNI NUTQQA O'RGATISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING O'RNI



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfservices.com

7th April, 2025

//International Conference on Economics, Finance, Banking and Management. – 2025.
– C. 42-46.

7. Isoqjonova D. M., Farzona N. APPLICATION OF DIDACTIC PRINCIPLES IN THE SCHOOL OF HEARING IMPAIRED CHILDREN //PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. – 2024. – T. 3. – №. 33. – C. 259-261.